

## Yoshlar - yangi O'zbekiston bunyodkori

M.Ismoilova  
UrDU

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Yangi O'zbekistonni barpo etishda yoshlarning o'rni va roli, prezidentimizning shu taraqqiyot yo'lidagi islohatlari, ta'lim tizimini isloh qilish bo'yicha qarorlari va farmonlari, ana shunday harakatlarning amaldagi natijalari, yurtboshimiz tomonidan iqtidorli yoshlarni rag'batlantirish maqsadida ta'sis etilgan davlat mukofotlari, O'zbekiston yoshlarining kelajagini o'zlari barpo etishiga ko'maklashuvchi jamoat tashkilotlarining faoliyati keltirib o'tilgan.

**Kalit so'zlar:** Renessans, Yangi O'zbekiston, prezident maktablari, ijod maktablari, "Zulfiya" nomidagi davlat mukofoti, "Mard o'g'lon" davlat mukofoti, "Yoshlar" daftari, "Temir" daftar, Yosh kitobxon, "Zakovat" intellektual o'yini.

## Young people are the builders of a new Uzbekistan

M.Ismoilova  
UrSU

**Abstract:** In this article, the role and place of youth in the construction of a new Uzbekistan, the President's reforms and decrees to reform the education system, the practical results of such actions, the President The state awards established for the purpose of strengthening the role of public organizations, which help to build the future of the youth of Uzbekistan.

**Keywords:** Renaissance, New Uzbekistan, presidential schools, creative schools, Zulfiya State Prize, Brave Boy State Prize, Youth Book, Iron Book, Young reader, "Intelligence" intellectual game.

*Kirish.* Biz yoshlarga e'tibor davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan O'zbekistondek o'ziga bek xalqning o'z aytar so'zi, o'zining buyuk tarixi, buyuk ajdodlari, urfu-odatlari, an'analariga ega bo'lgan mustaqil vatanning farzandlarimiz. Yurtboshimizning yoshlarga qaratayotgan e'tibori, yaratayotgan sharoitlari, ochib berayotgan imkoniyat eshiklari, ularning otalarcha g'amxo'rliklari yuksak cho'qqilarni zabt etishimiz uchun kuch va shijoat, qanoat bag'ishlaydi. Hurmatli prezidentimizning eng katta orzusi yangi O'zbekiston bag'rida biz yoshlar bilan birgalikda uchunchi renessansni barpo etish, va bungi kun yoshlari simosida buyuk ajdodlarimizni gavalantirishdek ezgu maqsaddan iborat. Renessans-lug'aviy

fransuzcha, (qayta tiklanish) degan ma'noni anglatadi. Tarixan olganda Turkiston o'lkasi ikki renessansni boshdan kechirdi: birinchisi IX-XII asrlar, ikkinchisi XIV asrning oxirgi choragi - XVI asrning birinchi choragidir. Birinchi renessansda buyuk ajdodlarimiz Amir Temur, Farg'oniy, Beruniy, Ibn Sino, Zamaxshariylar o'zlarining boy ilmiy, ma'naviy me'roslari bilan xalqimiz yuragida muhirlanib kelmoqdalar. Ikkinchi renessans davrida esa: Fitrat, Cho'lpon, Qodiriy singari jadidlarimiz, millatparvarlarimiz o'sha davrda ham yoshlarni milliy g'urur, vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga, ularni yetarli darajada bilimli, madaniyatli va ma'naviyatli qilishga intilib rus-tuzem ya'ni yangi usul maktablarini yo'lga qo'yishgan. Jadidlarimiz bular bilan cheklanibgina qolmay yoshlarni xorijiy mamlakatlarda ta'lim olishlari, o'z bilim va salohiyatlarini oshirishlari uchun imkoniyatlar yaratishgan. Prezidentimizning tashabbuslariga binoan mamlakatimizda yana bir muhim uyg'onish davri kechmoqda, endilikda milliy tiklanishdan milliy yuksalishga o'tkanimizdan keyin uchinchi renessansga erishishni davlat rahbari strategik vazifa etib qo'ydi. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning ommaviy axborot vositalari xodimlariga bergan interviyusida bu uchinchi renessans "Yangi O'zbekiston" deya nomlanganligi ushbu nom qanday mazmunga ega ekanligi haqida aniqlik kiritdi: "Yashab o'tgan ulug' zotlarning maqsadi-jaholat va qoloqlik girdobida qolib ketayotgan Turkiston xalqini dunyoviy ilm-fan, ilg'or kasb-hunar bilan qurollantirib, umumbashariy rivojlanish yo'liga olib chiqishdan iborat edi. Bugungi kunda butun xalqimizning qalbidan chuqur joy olgan, umummilliy harakatga aylanib borayotgan "Yangi O'zbekiston" g'oyasi zamirida ana shunday ulug' ajdodlarimiz, umuman olganda milliy tariximizda birinchi va ikkinchi uyg'onish davrlariga asos solgan alloma bobolarimizning orzu-intilishi va armonlari ham mujassam desak adashmagan bo'lamiz,"-dedi davlat rahbari. [1]

*Asosiy qisim.* Davlatimiz rahbari prezidentlik faoliyatining dastlabki kunlaridayoq malakali kadrlarning yetishmasligini, barcha sohada innovatsion va kreativ fikrlaydigan, ilg'or texnologiyalarni o'zlashtirgan mutaxassislariga ehtiyoj juda yuqori ekanini ta'kidlab kelmoqdalar. Yurtimizning ertangi kuni zamonaviy kadrlarga bog'liq, buning uchun ta'lim tizimini tubdan takomillashtirish, yoshlarni vatanparvarlik ruhida, yuksak ma'naviyat egalari etib tarbiyalash ustuvor vazifa etib qo'yilgan ekan biz yoshlar yurtboshimiz orzu qilga uchinchi renessans asoschilari ekanmiz, davlatimiz rahbari ta'kidlaganidek, o'z simomizda buyuk ajdodlarimizni gavdalantirmog'imiz muqarrar. Biz yoshlar buyuk kelajagimizga, o'zimizga ishonchimizni mustahkamlash, ajdodlarga munosib bo'lish uchun islohotlarni ilmdan boshlash zarurligini ich-ichimizdan his qilimoqdamiz. Ulug' o'zanlarning munosib davomchilari bo'lishga intilayotgan bugungi kun yoshlari orasida ham ilmiy izlanishlari, o'z bilim va salohiyatlari bilan nafaqat mamlakatimizda, balki jahon arenalarida ham ulkan marralarni zab etib kelayotgan tengdoshlarimiz bisyor.

Mamlakatimizda kadrlar tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish maqsadida qator farmon va qarorlar qabul qilinib, bu boradagi sa'y-harakatlar uchun puxta huquqiy zamin yaratildi. Barcha sohalar sigari oliy ta'lim tizimini har tomonlama rivojlantirish, takomillashtirish maqsadida ham ko'plab chora tadbirlar amalga oshirildi. Mamlakatimizning ko'pgina viloyatlarida ulug' allomalarimiz-Mirzo Ulug'bek va Muhammad Xorazmiy nomidagi iqtidorli bolalar maktablari, xalqimizning ardoqli adiblari nomlari bilan atalgan ijod maktablari, prezident maktablari, xususiy maktablar, zamonaviy ta'lim dargohlari tashkil etilgani yurtimiz yoshlari uchun ta'lim tarbiya olish borasida yangi imkoniyatlar eshigini ochib berdi. Mazkur o'quv maskanlari yangi avlod kadrlarini yetishtirishda muhim poydevor bo'lishi, shubhasiz. Chunki ushbu maktablar iqtidorli bolalarni aniqlash, ularga ilg'or texnologiyalarni qo'llagan holda saboq berish bo'yicha yaxlit tizim bo'ldi. Prezident maktablari bitiruvchilariga davlat tomonidan tasdiqlangan ma'lumot tog'risidagi hujjat bilan birga, xorijiy mamlakatlarning yetakchi oliy ta'lim muassasalariga o'qishga kirish imkonini beruvchi xalqaro darajadagi tegishli dastur diplomi berilishi ilmga tashna har bir o'quvchiga yanada kuch va shijoat bag'ishlaydi. Prezidentimizning ijod va ixtisoslashtirilgan maktablarni rivojlantirish tog'risidagi qaroriga muvofiq Muhammad Rizo Erniyozbek o'g'li Ogohiy tavalludining 210 yilligini nishonlash, hamda Xiva shahrida Ogohiy ijod maktabini tashkil etish tog'risidagi qarorini eshitib xorazmlik yosh ijodgorlarning boshi ko'kga yetgan edi. Ta'kidlash joizki, Xiva shahrida Ogohiy nomidagi zamonaviy texnologiyalar bilan jihozlangan, barcha sharoitlarga ega ijod maktabining tashkil etilishi iste'dodli yoshlarga keng imkoniyalar yaratdi. Bunday maktablarga yana bir misol, Xorazm viloyatining Shovot tumanida ko'p yildan beri yetuk kadrlarni yetishtirib kelayotgan Al-Xorazmiy nomli fizika-matematika fanlariga ixtisoslashgan maktab-internati faoliyat yuritib kelmoqda. Prezidentimizning yoshlarga bergan imkoniyatlari o'z samarasini bermoqda. Prezident maktablari, ijod maktablari va ixtisoslashtirilgan maktab o'quvchilari fan olimpiadalari va xalqaro olimpiadalarda, turli xil tanlovlarda erishgan yutuqlari bilan yurtboshimizning yoshlarga yaratayotgan imkoniyatlariga labbay deb javob bermoqdalar. Mana shunday maktablarning bitiruvchilari ko'plab xalqaro, nufuzli universitetlarning grand sohiblari bo'lishdi. Bularning barchasi albatta yurtboshimizning tashabbuslari samarasi. Mamlakatimizda yuqori bilim va malakaga ega bo'lgan, xalqaro miqyosda o'z tengdoshlari bilan raqobatbardosh bo'la oladigan kadrlar tayyorlash maqsadida oliygohlar soni oshib, shu qatorda xorijiy oliy ta'lim muassasalarining filyallari soni yildan-yilga ko'payib bermoqda. Keyingi 5 yilda oliy ta'limga qabul kvotalari 3 barobar oshirilgani, 2021-yilda 182 ming nafar yoshlar uchun talaba bo'lish imkoniyati yaratilgani yurtboshimizning naqadar xalqparvar inson ekanligidan dalolat beradi. 2021-yil Toshkent shahrida eng yuksak, xalqaro talablarga javob beradigan "Yangi O'zbekiston" universiteti tashkil etildi.

Ushbu universitet mamlakatimizdagi barcha oliy o'quv yurtlari uchun chinakam na'muna vazifasini o'tamoqda. [2] Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev Xorazm viloyati saylovchilar vakillari bilan uchrashuvidagi nutqida quyidagilarni aytib o'tdi: "Oqqan daryo-aslo to'xtamas" deganlaridek, Xorazmda ana shunday buyuk allomalarning shonli an'alarini davom ettirayotgan yoshlarimizning safi tobora kengayib borayotgani ayniqsa quvonarlidir. Mana shunday yoshlarimizdan biri O'zbekiston Milliy universitetining matematika fakulteti talabasi Xakimboy Egamberganov 3 yil-2014, 2015, 2016 yillarda matematika bo'yicha Yevropa mamlakatlarida bo'lib o'tgan xalqaro fan olimpiadalarida oltin medalni qo'lga kiritib, Xorazmiy bobomizning haqiqiy nabirasi ekanini isbotlab berdi"- degan so'zlari barcha xorazmlik yoshlar ko'nglida faxr va iftixor tuyg'usini uyg'otdi. [3] 2019-yil 24-may kuni Prezidentimiz O'zMUda oliy ta'lim va ilmiy tadqiqot muassalari rahbarlari, olimlari, yosh tadqiqotchilari bilan uchrashdi. Mazkur uchrashuvda yurtboshimiz iste'dotli yoshlardan biri bo'lgan Sardor Bozorboyevni Xalq ta'limi vazirligiga ishga olish bo'yicha taklif berdi. Xalq ta'limi vazirligida Sardor Bozorboyev Fan olimpiadalar bo'yicha iqtidorli o'quvchilar bilan ishlash Departamentida o'z faoliyatini boshladi. [4] Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohatlarda faollik ko'rsatib, o'zining bilimi va iqtidori bilan vatanimiz taraqqiyotiga munosib hissa qo'shib kelayotgan yoshlarni rag'batlantirish maqsadida davlat mukofatlari ta'sis etilgan. Yurt istiqboli uchun ma'suliyatni o'z zimmasiga olishga qodir bo'lgan fidoiy va mard o'g'lonlarimiz prezidentimizning 2017-yil 21-noyabrdagi qaroriga ko'ra "Mard o'g'lon" davlat mukofoti bilan taqdirlanishi to'g'risidagi qaror imzolanishi natijasida tomirida Al-Xorazmiy, Pahlovon Mahmud, Ogohiy, Jaloliddin Manguberdi kabi buyuk ajdodlarimizning qoni oqayotgan botir o'g'lonlarimiz ham, viloyatimizning botir yigitlari ham mazkur mukofot bilan taqdirlandilar. [5] O'zbek xalqi xonadonida qiz farzand dunyoga kelsa, uni o'zgacha mamnuniyat bilan kutib oladi, ona qizim deb ko'klarga ko'taradi, fikrimning isboti tariqasida mamnuniyat bilan ta'kidlashim joizki, o'zlarining a'lo xulqi, tashabbuskorligi, muvaffaqiyatlari bilan alohida iste'dodlarini nomoyon qilib kelayotgan qizlar "Zulfiya" nomidagi davlat mukofoti bilan taqdirlanib kelmoqdalar. Eng quvonarli jihati shundaki, Prezidentimizning 2018-yil 2-yanvardagi "Xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash va oila institutini mustahkamlash sohasidagi faoliyatini tubdan takomillashtirish chora tadbirlar tog'risidagi" farmoniga binoan iqtidrlri qizlarni Zulfiya nomidagi davlat mukofoti bilan taqdirlashni 22 yoshdan 30 yoshga uzaytirilgani nur ustiga a'lo nur bo'ldi. Chunki mazkur yosh doirasida qizlarimiz manashu mukofotga munosib sovrindor bo'ladigan darajada ulkan yutuqlarni zabt etmoqlari muqarrar. [6] Yoshlar o'rtasida kambag'allikni kamaytirish, ularni o'zini-o'zi band qilishga rag'batlantirish, yoshlar dasturlari doirasida amalga oshirilayotgan ishlar muhim ahamiyatga ega. Har bir shaxs bilan individual va tizimli ravishda

muntazam ish olib borish maqsadida moddiy yordam va ko'makka muhtoj oilalar bo'yicha yangi, "Temir daftari", ijtimoiy, iqtisodiy, huquqiy, psixologik qo'llab-quvvatlashga, bilim va kasb-hunar o'rganishga ehtiyoji va ishtiyoqi bo'lgan xotinqizlar va yoshlar bo'yicha tegishli "Ayollar daftari" va "Yoshlar daftari" tizimlari hayotga tatbiq etildi. 2021-yil mobaynida "Yoshlar daftari" ga kiritilgan yigit-qizning muammolarini hal etish uchun milliardlab mablag' yo'naltirildi. "Temir daftari" dagi oilalar farzandlari bo'lgan 2 mingdan ziyod talabalarning shartnoma pullari to'lab berildi. [7] "Ma'naviyatli xalqni yengib bo'lmaydi".- Bu ibora zamirida ulkan ma'no mujassam. Yoshlarimizning ma'naviyatli, marifatli bo'lib kamol topishlari uchun, ularning dunyo qarashi va fikrlash doirasini kengaytirish maqsadida "Yosh kitobxon" tanlovi va "Zakovat" intellektual o'yinlari tashkil etilgani kitobxon yoshlar shahri kengayib borishiga ulkan zamin yaratdi. Tanlov g'oliblari avtomobil sovg'asi bilan mukofotlanishadi, biroq tanlov g'oliblarining maqsadi avtomobil sohibi bo'lish emas, balki o'z tengdoshlarini ham kitob o'qishga da'vat etish va ular orasida adabiy muhitni shakllantirishdan iborat. Iqtidorli yoshlarni mantiqiy bilimni oshirish, aholini intellektual salohiyatini yuksaltirish maqsadida "Zakovat" intellektual klublarini tashkil qilingani, "Zakovat" intellektual o'yinlarining aholi o'rtasida ommaviy-ma'rifiy harakatga aylantirish va boshqa intellektual o'yinlarni rivojlantirishga oid chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori barcha ilimga tashna yoshlarni birdek quvontirdi. Har bir tumanda, mahallalarda istiqomat qiluvchi iqtidorli yoshlar va kattalar o'rtasida Zakovat o'yinlari o'tkazilmoqda. Respublika bosqichi g'oliblari bo'lgan o'quvchi yoshlar va talabalar uchun 2022/2023 o'quv yilidan boshlab yil davomida har oyda beriladigan "Zakovat" stipendiyasi joriy etiladi. Bunday qarorlar yoshlarni o'qishga bo'lgan intilishini va o'z ustida ishlashi uchun rag'batlantiruvchi omil vazifasini o'taydi. [8]

*Xulosa.* Prezidentimiz tomonidan yoshlarga katta ishonch bildirilib, olib borilayotgan bunday islohatlar, qabul qilinayotgan qaror va farmonlarga javoban, yangi O'zbekiston yoshlari yuqori darajali bilim egalari va yetuk kadrlar bo'lib yetishishga, egallagan bilim va ko'nikmalarimiz bilan yurtimiz taqraqqiyotiga munosib hissa qo'shishga va'da beramiz. Farzandlari doim izlanishda bo'lgan, yuksak marralarni ko'zlab doimo oldinga intilgan xalq o'z oldiga qo'ygan maqsadlariga albatta erishadi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Sh. M. Mirziyoyev. Yangi O'zbekiston demokratik o'zgarishlar va amaliy ishlar mamlakatiga aylanmoqda. Toshkent-2021; 52-53 betlar
2. Sh.M. Mirziyoyev. Niyati ulug' xalqning ishi ham ulug', xayoti yorug' va kelajagi farovon bo'ladi. 3. Toshkent-"O'zbekiston"-2019; 243-244 betlar

3. Sh. M. Mirziyoyev. Yangi O'zbekiston demokratik o'zgarishlar va amaliy ishlar mamlakatiga aylanmoqda. Toshkent-2021.